

"O'zkiyosanoat" AJ "Job Fest- 2024" kuzgi bo'sh o'rinlari yarmarkasida ishtirok etdi

// 22 November 2024 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-job-fest-2024-kuzgi-bo-sh-o-rinlari-yarmar>



20-noyabr kuni Inha universitetida "Job Fest- 2024 kuzgi bo'sh o'rinlari yarmarkasi" bo'lib o'tdi.

Talaba-yoshlarni qo'llab-quvvatlash, respublikamiz bo'ylab kadrlar siyosatini oqilona targ'ib etish, aholi bandligiga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan ushbu yarmarkada "O'zkiyosanoat" AJ mas'ullari ham faol ishtirok etishdi.



Unda yoshlarga tashkilot va tarmoq korxonalaridagi mavjud ish o'rinlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar, mehnat sharoiti to'g'risida ma'lumotlar berildi.



Bu kabi tadbirlar bitiruvchi yoshlar bandligini ta'minlash bilan bir qatorda kimyo sanoati sohasiga iqtidorli

va bilimli yoshlarni jalb qilish hamda korxonalarning kadrlar zaxirasini shakllantirishga xizmat qiladi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati